Annotatsiya: Bugungi kunda dunyo aholi sonining ko'payib borishi, sanoatning rivojlanishi, har xil omillar ta'sirida ekologik muvozanatning buzilishi, iqlim o'zgarishlari, sharoitida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanirish orqali aholini oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi kun tartibidagi dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Ushbu maqolada asalarichilikning qishloq xo'jaligida o'rni, uning rivojlanish isliqbollar, o'ziga xos xusisiyatlar yoritilgan va tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi, asalarichilik, asalarichilik sohasining rivojlanish bosqichlari, asalarichilikda rivojlanish islohotlari, fermer xo'jaliklar.

Abstract: In the context of increasing world population, industrial development, disruption of the ecological balance under the influence of various factors, climate changes, the issue of providing food security to the population through sustainable development of agriculture is one of the urgent tasks of the agenda. This article describes and analyzes the role of beekeeping in agriculture, its development factors, and its specific features.

Key words: Agriculture, food safety, beekeeping, stages of development of the beekeeping sector in our Republic, development reforms in beekeeping, farms.

Аннотация: В условиях роста населения планеты, промышленного развития, нарушения экологического баланса под воздействием различных факторов, изменения климата, вопрос обеспечения продовольственной безопасности населения посредством устойчивого развития сельского хозяйства является одной из актуальных задач. В данной статье описывается и анализируется роль пчеловодства в сельском хозяйстве, факторы его развития и особенности.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, продовольственная безопасность, пчеловодство, этапы развития отрасли пчеловодства в нашей республике, реформы развития пчеловодства, фермы.

KIRISH

Keyingi yillarda respublikamizda aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, shu jumladan, sifatli asal mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar qabul qilindi. Ularning ijrosi samarali ta'minlanmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, asal ishlab chiqarish bo'yicha mavjud imkoniyatlardan samarasiz foydalanish asalarichilik tarmog'ining eng zaif bo'g'ini hisoblanadi. Natijada asalari oilalarining mahsulorligi 20 kilogramdan oshmaydi, bu jahondagi o'rtacha ko'rsatkichlardan ham pastdir. Asalarichilik sohasidagi ilg'or tajribalarni o'rganish, asal yetishtirishning zamonaviy texnologiyalarini keng joriy etish va yuqori texnologik usullardan foydalanish masalalariga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti. Asalarichilik tarmog'idagi mavjud muammolarni hal qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-oktabrdagi PQ-3327-son "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlanirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi:

- ushbu qarorga muvofiq "O'zbekiston asalarichilari" uyushmasi tashkil etildi.
- "O'zbekiston asalarichilari" uyushmasining asosiy vazifalari etib asal mahsulotlari ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini tizimli tashkil etish, asalari paketlari yetishtirish va ozuqa bazasini mustahkamlash, tabiiy resurslardan oqilonan foydalanish, shuningdek, asal yetishtirish jarayoniga ilmiy asoslangan usullar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish belgilab qo'yildi.



- asalarichilik xo'jaliklari tomonidan asal yig'ish mavsumi davomida o'rmon fondi yerlaridan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan (davlat qo'riqxonalari, biosfera rezervatining qo'riqlanadigan zonasidan tashqari), tog' va tog'oldi hududlaridan, tabiiy pichanzor va yaylovlardan hamda qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish bepul amalga oshiriladi.
- AT "Aloqabank" huzurida mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida lizing kompaniyasi tashkil etiladi, unga tijorat banklari kreditlari va lizing kompaniyasining o'z mablag'lari hisobidan asalari uyalari, ular uchun zarur jihozlar, anjomlarni va asalarichilik sohasida qo'llaniladigan inventarlar, maxsus transport vositalari va tirkamalar, asalni qadoqlash texnologik liniyalari va boshqa lizing obyektlarini lizing asosida yetkazib berish vazifasi yuklatilgan.

Shuningdek, asalarichilik sohasidagi ilg'or tajribalarni respublikamizning barcha hududlarida tatbiq etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagagi PF-5497-sonli Farmoniga ko'ra:

1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hamda Aksiyadorliktijorat "Aloqabank", "O'zbekiston asalarichilari" uyushmasini tashkil etish to'g'risidagi taklifga ko'ra rozilik berildi.
2. Quyidagi "O'zbekiston asalarichilari" uyushmasining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalichlari qilib belgilandi:
 - asalarichilik tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani ishlab chiqishda ishtiroy etish;
 - asalarichilik tarmog'ini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish, yagona ilmiy-texnika, investitsiya va eksport siyosatini muvofiqlashtirish;
 - mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda asalarichilik xo'jaliklarining o'rmon fondi yerlariga, tog' va tog'oldi hududlariga, tabiiy pichanzor va yaylovlarga hamda qishloq xo'jaligi yerlariga joylashtirishni amalga oshirish;
 - asalari uchun sun'iy ozuqalar ishlab chiqarishni markazlashgan holda tashkil etishga ko'maklashish va ushbu tajribani keng qo'llash hisobiga asalarichilik xo'jaliklarining ozuqa bazasini mustahkamlash;
 - asalari kasalliklarining oldini olish davolash va tashxis qo'yish bo'yicha zamonaviy va ilg'or usullarni joriy etish ishlariga ko'maklashish;
 - oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, shu jumladan, xorijiy muassasalarda asalarichilik tarmog'ining kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirishda ishtiroy etish;
3. "O'zbekiston asalarichilari" uyushmasining tashkiliy tuzilmasi va uningiro etuvchi apparati boshqaruva xodimlarining umumiy cheklanganlar soni 27 nafar bo'lgan tuzilmasi muvofiqlashtirilgan.
4. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va A.T.Aloqabank Uyushmani "Apimondiya" xalqaro asalarichilik uyushmalari federatsiyasiga a'zo bo'lib kirishi bilan bog'liq barcha zarur tashkiliy-amaliy tadbirlar ta'minlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Asalarichilikni rivojlantirish borasida ko'plab olimlar tadqiqotlar olib borgan bo'lib, ularning barchasi sohani rivojlantirish qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun birdek samarali bo'lishini, bu ayniqsa asalarilar yordamida qishloq xo'jaligi ekinlarining changlatish vazifalari uchun juda istiqbolli soha ekanligini ta'kidlaganlar. Xususan, Rossiyalik olim V.X.Vorokov asalarichilikni "Iqtisodiy va tadbirkorlik faoliyatining bir turi sifatida asalarichilik biznesi barcha asalarichilik funksiyalaridan maksimal darajada foydalanish orqali agrosanoat majmuuning tayanch bo'g'inlaridan biri sanaladi" deb hisoblaydi. Muallif fikricha, asalarichilikning rivojlanganlik darajasi asalarichilik mahsulotlarini yetishtirish orqali emas, balki o'simliklarni changlatish xizmatlarini ko'rsatish orqali daromadga ega bo'lish orqali baholash mumkin¹.

Shuningdek, A.A.Lisenko fikricha, asalarichilik qishloq xo'jaligining eng serdaromad sohalaridan biri bo'lib, u nafaqat iqtisodiy, balki ekologik jihatdan ham jamiyat uchun eng zarur tarmoqlardan biridir. Ammo so'nggi yillarda ekologik muammolar ta'sirida asalarichilik tarmog'ida turli kasalliklar yuzaga kelayotgan bo'lib, bu soha bilan band bo'lgan aholi daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shu bois qishloq xo'jaligini rivojlantirish dasturlarida, asalarichilikni hamohang tarzda rivojlantirishni nazarda tutish zamon talabiga aylanib bormoqda².

Iqtisod fanlari nomzodi G.R.Mursalimovan fikricha, jahon bozorida raqobatbardosh qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish g'oyat muhim hisoblanib, bu muammoni hal etishda asalarichilik muhim ahamiyat kasb etadi. Asalarilar yuqori kaloriyalı oziq-ovqat mahsuloti – asal va boshqa mahsulotlar ishlab

1 Перспективы развития пчеловодства в условиях индустриализации АПК : Сб. ст. по материалам междунар. науч.-практ. конф. / отв. за вып. В.И.Комлацкий. – Краснодар : КубГАУ, 2020. – 3 с.

2 А.А.Лысенко. Мониторинг и разработка способов лечения и профилактики болезней пчел в Республике Афганистан. Краснодар : КубГАУ, 2020. – 236 с.



chiqaradi, entomofil qishloq xo'jaligi ekinlarining changlanishini ta'minlaydi, ularning hosildorligi 40% yoki undan ko'proq oshiradi. Asalarilar changlatish hisobiga qishloq xo'jalik ekinlari hosilini oshirish xarajatlari asosiy asalarichilik mahsulotlaridan olinadigan yillik daromaddan bir necha baravar yuqoridir³. Muallif asalarichilik ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun hududning melliferli resurslari va ekologik holatini hisobga olgan holda asalarichilikni oqilonha joylashtirish kerak deb hisoblaydi. Fikrimizcha, G.R.Mursalimovaning ilmiy yondashuvlari mamlakatimiz sharoitida ham dolzarb sanalib, asalarichilik bazi hududlarda zinch joylashganligi, bazi hududlarda nisbatan past darajada rivojlanganligi bois, ilmiy asosda hududning melliferli resurslari va ekologik holatini hisobga olgan holda joylashtirish talab etiladi.


Iqtisod fanlari nomzodi T.V.Torjenova ham bu borada bir qator tadqiqotlar olib borgan bo'lib, asalarichilik tegishli ishlab chiqarish sharoitlari va ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimida o'z o'rniiga ega bo'lgan sifat jihatidan bir xil xo'jalik birliklari guruhini tashkil etuvchi alohida tarmoqdir. U bozorga asal, mum, propolis, asalari noni va boshqa bir qator qimmatli mahsulotlar yetkazib berib, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida muhim vazifalarni bajaradi,⁴ degan xulosaga kelgan. T.V.Torjenova tadqiqotlari davomida asalarichilikning rivojlantirishning samarali yechimi sanoat asosida rivojlantirish bo'lib, buning uchun innovatsion texnologiyalarga investitsiyalar kiritish eng maqbul usul sanaladi. Bizningcha, mamlakatimizda ham asalarichilik tarmog'ini sanoat asosida tashkil qilishda innovatsion texnika va texnologiyalarni rivojlantirish uchun barcha tashkiliy asoslar amalda mavjud bo'lib, ushbu jarayonni iqtisodiy rag'batlantirish hamda ilmiy asoslarini takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Ma'lumki, respublikamizda asalarichilik, xususan, asalari mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlar qadimdan ma'lum bo'lgan. Asal va asalari mahsulotlarining foydali jihatlari to'g'risida Ibn Sino va Al-Beruniyning asarlarida mingdan ortiq tavsiyalar keltirilgan. Shunday bo'lsa-da, asalarichilikning mamlakatimizda qishloq xo'jaligining bir bo'g'ini, mahsulot yetishtiruvchi faoliyat shakli sifatidagi rivojlanishi bir nechta davrlarni bosib o'tgan bo'lib, uni quyidagi bosqichlarga bo'lgan holda guruhlarga ajratish mumkin.

1991-2003-yillarni o'z ichiga qamrab olgan birinchi bosqich, mustaqillikning ilk davrlariga to'g'ri kelib, o'tish davri iqtisodiyotiga hos bo'lgan islohotlarni boshdan o'tkazadi. Xususan, asalarichilik kolxozlari tugatilib, ular psychilik asosida faoliyat yuritadigan asalarichilik shirkat xo'jaliklariga aylantiriladi. Shuningdek, bu davrda tarmoqda xususiy sektor ulushi orta boshladi, davlat xaridi va buyurtmasi bekor qilindi.

Respublikamizda mustaqillik davridan keyingi yillarda asalarichilik sohasining rivojlanish bosqichlari



- Asalarichilikda yangi xo'jalik shakllari tashkil etildi, tarmoqda xususiy sektor ulushi orta boshladi, davlat haridi va buyurtmasi bekor qilindi.
- Asalarichilik shirkat xo'jaliklari tugatilib, fermer xo'jaliklariga aylantirildi, dehqon xo'jaliklari ulushi oshib, qayta ishlash va xizmat ko'rsatish tizimi jadal rivojlandi.
- Yangi zamонавиyo xo'jalik yuritish shakllari kirib keldi, asal zahri bilan davolashga ruxsatnomalar berildi, esport va import qilishda imtiyozlar joriy etildi.

Barcha
bosqichlarga
hos bo'lgan
holatlar; asal
yetishtirishga
bo'lgan
qiziqishing
yuqoriligi,
doimiy
potensal
talabning
mavindligi,
halq
tabobatida
alohida o'rin
tutishi va
bosqich

Asalarichilikda islohotlarning ikkinchi bosqichi sifatida mamlakatimizda fermer xo'jaliklariga ustuvorlik berilgan va shirkat xo'jaliklari negizida fermer xo'jaliklari tashkil etila boshlagan 2004-yildan, asalarichilikda

3 Г.Р.Мурсалимова. Научное обоснование путей повышения экономической эффективности отрасли пчеловодства: на материалах Республики Башкортостан. к.э.н. дисс. автореферати. УФА-2006 г

4 Т.В.Торженова. Организационно-экономические аспекты эффективного производства перги: на материалах Рязанской области. к.э.н. дисс. автореферати. УФА-2010 г.



dehqon xo'jaliklari ulushi ortib, qayta ishlash va xizmat ko'rsatish tizimi jadal rivojlangan 2016-yilgacha bo'lgan davrni kiritishimiz mumkin. Bu davrda tarmoqda mulkchilikning turli shakllari, xususan, xususiyashtirishga urg'u berildi. Asalarichilik fermer xo'jaliklarini tashkil etishdagi tashkiliy muammolar sababli dehqon xo'jaliklarida mahsulot yetishtirish nisbatan sodda va ortiqcha ma'muriy ta'sirlardan holi bo'lganligi bois jadal rivojlandi.

Shu bilan birgalikda respublikamizda asalarichilik sohasining jadal rivojlanishida yangi bosqichni boshlab bergen 2017-yildan hozirgi davrga qadar bo'lgan muddatlarni 4-bosqich sifatida e'tirof etish mumkin bo'lib, unda yangi zamonaviy xo'jalik yuritish shakllari kirib keldi, asal zahri bilan davolashga ruxsatnomalar berildi, eksport va import qilishda imtiyozlar joriy etildi. Shuningdek, "O'zbekiston asalarichilari" uyushmasi tashkil etilib, uyushma a'zolariga bir qator imtiyozlar joriy etildi. Xususan, o'rmon fondining asalarichilikda foydalanish mumkin bo'lgan resurslaridan bepul foydalanish imkoniyati yaratib berildi.

Respublikamizda mavjud asalarichilik subyektlari sonining o'zgarishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2018–2022-yillar oralig'iда 21 foizga o'sganligini kuzatishimiz mumkin. Asalarichilik subyektlari soni 2018-yilda respublika bo'yicha jami 14018 tani tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 15794 tani va 2022-yilga kelib 16974 tani tashkil etgan. Asalarichilik xo'jaliklari soni ortib borishi mos ravishda asal yetishtirish miqdorining ham ortib borishiga o'zining ijobji hissasini qo'shmaqda. Xususan, 2018-yilda respublika bo'yicha jami 12,5 ming tonna asal yetishtirilgan bo'lsa, 2020-yilda 13,3 ming tonna va 2022-yilda esa, 14,7 ming tonna asal yetishtirilgan yoki 2022-yilda 2018-yilga nisbatan 16 foizga o'sganligini kuzatishimiz mumkin. Yetishtirilgan asal miqdorida turli toifadagi xo'jaliklar ulushiga e'tibor qaratilsa, asosiy asal va asal mahsulotlari dehqon xo'jaliklari tomonidan yetishtirilayotganligini ko'rish mumkin. Jumladan, 2018-yilda jami yetishtirilgan asal miqdorining 87,2 foizini dehqon xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan bo'lsa, 8,4 foizi fermer xo'jaliklari tomonidan va 4,4 foizi qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan yetishtirilgan. 2020-yilda bu ko'rsatkich mos ravishda 80,9 %, 12,5 % va 5,7 % ni takshil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 81,5%, 12,4 % va 6,1 % ni tashkil etgan.

1-jadval: Respublikamizda yetishtirilgan asal miqdori o'zgarish dinamikasi, tonna⁵

Hududlar	Yillar						2022-yil 2018-yilga nisbatan foizda	
	2018-yil		2019	2020	2021	2022-yil		
	tonna	%				tonna		
Qoraqalpog'iston Respublikasi	581,8	4,6	730,9	753	799,3	836	5,7	143,7
Andijon	1054,9	8,4	1132,3	1182,5	1204,5	1246	8,5	118,1
Buxoro	1787,8	14,2	1907,3	1 946,30	2160,8	2293	15,6	128,3
Jizzax	1087,5	8,6	1128,7	1145,1	1157,7	1202	8,2	110,5
Qashqadaryo	1144,2	9,1	1219,6	1239	1244,4	1335	9,1	116,7
Navoiy	1027,5	8,2	1035,4	1072,4	1108,8	1129	7,7	109,9
Namangan	986,9	7,8	1054,4	1073,4	1076,8	1095	7,5	111
Samarqand	1213,5	9,6	1001,2	1 049,30	1141,5	1221	8,3	100,6
Surxondaryo	704,9	5,6	737,4	802,4	877,4	904	6,2	128,2
Sirdaryo	262,7	2,1	267,5	274,5	347,9	361	2,5	137,4
Toshkent	496,4	3,9	457,4	458,4	508,9	523	3,6	105,4
Farg'ona	1274,5	10,1	1320,5	1337,7	1413,2	1421	9,7	111,5
Xorazm	955,8	7,6	1009,1	1023,8	1025,7	1129	7,7	118,1
Jami	12578,4	100	13001,7	13357,8	14066,9	14695	100	116,8

Asal yetishtirish iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri bu aholi jon boshiga nisbatan yetishtirilgan mahsulot miqdori bo'lib, u tibbiy me'yordarga ko'ra baholanadi. Mamlakatimizda mavjud me'yoriy hujjatlarga ko'ra bir yilda bir kishi 7 kg asal iste'mol qilishi talab etiladi. Tahllillarga ko'ra 2018-yilda aholi jon boshiga nisbatan 2,6 kg asal yetishtirilgan holda tibbiy me'yorga nisbatan 37,1 foizga ta'minlangan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 2,5 kg va 36,3 foizni hamda 2022-yilda 2,4 kg va 34,3 foizni tashkil etgan⁶.

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida.

6 O'zbekiston Respublikasi aholisining yoshiga, jinsiga va kasbiy faoliyati guruhlari uchun sog'gom ovqatlanishni ta'minlashga qaratilgan o'rtacha kunlik ratsional ovqatlanish normativlari. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 24.12.2020-yildagi 0007-20-son buyrug'i,<https://lex.uz/docs/5182749#5184550>



2-jadval: Respublikamizda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan asal miqdori o'zgarishi dinamikasi, kg

Asalari mahsulotlari	Yillar					2022-yilni 2018-yilga
	2018	2019	2020	2021	2022	
Ishlab chiqarilgan asal miqdori, tonna	12578,4	13001,7	13357,8	14066,9	14695	2116,6
Doimiy aholi soni, ming kishi	32656,7	33255,5	33905,2	34558,9	35271,3	2614,6
Tibbiy iste'mol me'yori, kg/kishi	7	7	7	7	7	
Aholi jon boshiga yetishtirilgan asal, kg/kishi	2,6	2,6	2,5	2,5	2,4	-0,2
Tibbiy me'yorga nisbatan ta'minlanish darajasi, foiz	37,1	36,5	36,3	35,1	34,3	-2,8

Shuningdek, iqtisodiy jihatdan sohani rivojlantirish orqali qo'shimcha daromad manbaalarini hamda ko'p tarmoqli xo'jaliklarda aylanma mablag'larni shakllantirish, foydalanilmayotgan agroresurslarni (gul changi, changlatish xizmati, propolis, asalari zahri va boshqa) bozor aktiviga aylantirish kabi holatlar ham sohani barqaror rivojlantirishni zamon talabiga aylantirmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta'kidlashimiz mumkinki, mamlakatimizda asalarichilikni barqaror rivojlantirish uchun tadbirdorlik motivatsiyasi, halq tabobati va iste'mol savatchasidagi asosiy oziq-ovqat sifatida potensial talabning mavjudligi sohani doimiy ravishda, shu bilan birgalikda ilmiy asoslangan tarzda takomillashtirib borishni taqazo etadi.

XULOSA

- Inson organizmi faoliyati uchun zarur bo'lgan moddalarning ko'plab turlari faqatgina asalarichilik tarmog'ida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tarkibida uchraydi. Shuning uchun, asalari mahsulotlari kuchli energetik quvvatliligi va oqsilga boyligi sababli insonlar ozuqa ratsionidagi barcha zarur moddalar bilan ta'minlanganlik darajasi bo'yicha ajralib turadi;
- O'simlikchilik tarmog'ini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ekinlar hosildorligini oshirishda asalarilar yordamida changlatish muhim manba bo'lib xizmat qiladi;
- Qishloq xo'jaligi korxonalari birinchi navbatda o'z hududlarida asalarichilik tarmog'ini tashkil etishi xo'jalikning daromadini oshirishga imkon bersa, ikkinchi navbatda asalarilar yordamida dehqonchilik mahsulotlari sifatini va hosildorligi oshib, xo'jaliklarni daromadini ko'tarilishiga olib keladi, uchinchi navbatda esa asalarichilik tarmog'idan olingan daromadni xo'jalikda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, moddiy-texnika ta'minotini oshirish pirovard natijada xo'jalikning iqtisodiy samaradorligini oshirishga imkoniyat yaratadi, to'rtinchidan esa xo'jalik a'zolari, qolaversa iste'moldan ortiqcha tabiiy va sifatli mahsulotlarni hududlardagi aholining iste'mol qilishi hisobiga salomatliklari yanada mustahkamlanadi. Bu esa pirovard natijada bosh maqsad hisoblangan xo'jalikda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobat-bardoshligini oshishiga, iqtisodiy samaradorligi ko'tarilishiga va barqaror faoliyat yuritishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Abdigapparovich I. X. (2024). Qishloq xo'jaligi maxsulotlarini tayyorlov va sotish xizmatlarini boshqarish // Journal Of Innovations In Scientific And Educational Research, 7(2), 148–157.
- Abdigapparovich I. X. (2024). Qishloq xo'jaligida mashina-traktor parklari xizmatlarining ahamiyati // World Of Science, 7(2), 105-113.
- Абдигаппирович И. Х., & Юлдашев Ш. Х. (2024). Вопросы совершенствования учета затрат и стоимости продукции на сельскохозяйственных предприятиях // Со'нги илмиy тадқиқотлар назариyаси, 7(1), 361-368.
- Jo'taeva D. O., & Abdushukurov X. B. (2023). Uzumchilik plantatsiyalarini barpo etish xarajatlari hisobini tashkiliy-uslubiy asoslari // The Journal of Economics, Finance and Innovation, 690-699.
- Alikulov A. I. (2010). Modern trends in development of cotton production and processing chain in Uzbekistan. Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB, 6(3), 75-76.
- Pasulova Ш. (2023). Xarajatlari hisobini tashkil etish va tasniflashning iqtisodiy ahamiyati // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(2), 85-93.
- Tashmuratovich E. U. (2023). Accounting And Audit Improvement Of Ready Sale Products In Agrocluster // The Journal of Economics, Finance and Innovation, 649-657.
- Yuldashev S., & Ishturdiyev H. (2023). Qishloq xo'jalik korxonalarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini takomillashtirish masalalari.
- Гайбуллаев Р. М., & Иштурдиев Х. (2023). Хўжалик юритиш субъектларида молиявий натижалар хисоби ва аудитини такомиллаштириш // World of Science, 6(4), 345-351.
- Eshmuradov U. B. (2023). Sotish jarayonlari hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashirish.



Yashi

IQTISODIYOT
Va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Alfraganus universiteti dotsenti, i.f.f.d. (PhD) Fayziyev Oybek Raximovichning umumiy tahriri ostida nashrga tayyorlandi.

O'zbek tili muharriri: Ulug'bek Eshmuradov

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Rus tili muharriri: Abdimo'min Alikulov, i.f.d., professor

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Bobur Ochilov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodi materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027
Topshirildi: 10.04.2024-yil. Nashrga ruxsat etildi: 19.04.2024-yil.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o’tkazilgan.